

Kasb-Huunar Ta'limda Darsdan Tashqari Ishlar Jarayonida Tarbiyalash Va To'garaklarni Tashkil Etish

A. T. Umirov

T.f.f.d., Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kasb-hunar to'garaklarini tashkil etishning asosiy maqsadi to'garak a'zolariga tegishli bilim, ko'nikma malakalarni berish-dangina iborat emas, balki to'garak a'zolarining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, ijtimoiy, shaxsiy mulkka munosabatini, jamoa va uning a'zolariga bo'lgan ijobiy munosabatlarini, badiiy didini, iqtisodiy, jismoniy, axloqiy, milliy madaniyatini tarbiyalashdan iboratligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, axloq tarbiyasi, metodlar, ta'lim berish, pedagogik mahorat, tanqidiy baholash.

Kasb-hunar to'garaklarini tashkil etishning asosiy maqsadi to'garak a'zolariga tegishli bilim, ko'nikma malakalarni berish-dangina iborat emas, balki to'garak a'zolarining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, ijtimoiy, shaxsiy mulkka munosabatini, jamoa va uning a'zolariga bo'lgan ijobiy munosabatlarini, badiiy didini, iqtisodiy, jismoniy, axloqiy, milliy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lim berish bilan birga tarbiyalashga katta ahamiyat berish kerakligini mutafakkirlar o'z davrida aytib o'tganlar.

Axloq tarbiyasi insonlarga eng muhim, narsa baland daraja beruvchi tarbiyadir. Shu bois to'garak darslari jarayonida to'garak rahbari avvalo o'zi shaxsiy namuna bo'lishi, kiyinishi, so'zlashishi, o'zini tutishi bilan to'garak a'zolariga o'rnak bo'lishi kerak. To'garak jarayonida professional topshiriqlarini bajarishda shaxsning javobgarlik, vijdonlilik kabi xislatlarini, inti-zomiga amal qilgan holda jamoa bo'lib malakasini, ijtimoiy mulkka g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash nazarda tutiladi. To'garak az'olarini tarbiyalashning bir qator qonun-qoidasi mavjud:

- 1) jamoa bo'lib mehnat qilish. topshirilgan ishga javobgarlik hissini tarbiyalash;
- 2) o'z-o'zini tanqidiy baholash va tanqidiy nazorat qilish, kamchiliklarga nisbatan muhosasiz bo'lish hislarini tarbiyalash;
- 3) ongli intizomni tarbiyalash;
- 4) jamiyat va shaxs mulkiga g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash;
- 5) to'garak mashg'ulotlari jarayonida tarbiya usullaridan: iqtisodiy, kasbiy, axloqiy, badiiy, milliy, jismoniy, madaniyatini shakllantirish va hokazo.

Endi bolalarni tarbiyalash usullarini qanday yo'llar bilan olib borilishini ko'rib chiqamiz:

1. To'garak mashg'ulotlarida jamoa bo'lib ishlashda to'garak a'zolari bir-biriga yordam beradi. To'garak a'zolari ba'zi ishlar-ni birgalikda, bir-biriga yordam berib, ish o'rinlarini almashib, maslahatlashib bajarishlariga t6'g'ri keladi. Bti imkoniyatlardan to'garak rahbari to'garak a'zolarini tarbiyalashda keng foydalanishi kerak. To'garak jarayonida to'garak a'zolari o'zaro do'stlik, bir-biriga yordam berish, rahbarlik, bo'ysunish, javobgarlik, ta-labchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. To'garak rahbari bu munosabatfarni kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va ularni to'g'ri yo'naltirib turishi lozim.

2. To'garak mashg'ulotlarida ayrim hollarda to'garak rahbari to'garak a'zolariga o'z ishini baholashni taklif etadi. Bu esa to'garak a'zosiga tayyorlangan buyumni sinchiklab tekshirishga, sifat ko'rsatkichiga amal qilishga, o'z-o'zini tanqidiy baholash hissining shakllanishiga yordam beradi.
3. To'garak rahbarining talablarini bajarish natijasida to'garak a'zolari qabul qilingan qoidalar, ish usullarini aniq, ongli bajarishga asta-sekin ko'nikadilar. Ular berilgan ish maromini saqlashga, ish o'rnini namunali tutishga, asboblarni ehtiyot qilishga odatlanadilar. To'garak a'zolariga kasb-xunar maktablari ta'limi berish, turmushga tayyorlashning muhim sharti hisoblangan intizomni yo'lga qo'yish orqali erishiladi. To'garak a'zolariga ishonish, ularni hurmat qilish bilan birga talabchanlikni qo'shib olib borish ongli intizomni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.
4. To'garak a'zolarida ijtimoiy mulkka nisbatan g'amxo'rlik munosabatini tarbiyalashning ta'sirchan usullaridan biri ularni unumli Professionalga, to'garak usulxonasini jihozlash ishiga, asbob-larni ta'mirlashga jalb qilishdan iboratdir. To'garak a'zolarini buyumlarni bichish vaqtida gazlamani tejamkorlik bilan sarflash-ga, asbob-uskuna, korjamalarni ehtiyot qilishga o'rgatish, o'z ishini sidqidildan bajarishga, Professionalni sevishga o'rgatish orqali Professional tarbiyasi shakllanadi.
5. Kasb-xunar maktablari madaniyatini tarbiyalashda har bir to'garak a'zosi o'zidan keyin shu ish joyida boshqa shaxs o'tirib ishlashi, unga ham toza, ozoda ish joyi zarurligini tushunishi, shu joyini "yig'ishtirishga odatlanishi kerak. Shuning uchun ham mashg'ulot rejasini yozishda albatta ish joyini yig'ishtirish bosqichi re-jadallashtirilishi va bajarilishi nazorat qilinishi kerak.
6. To'garak rahbari tayyorlangan buyumning chiroyliligini, tozaligini, bezagini hamda to'garak a'zosining kasb-hunar maktablari harakatlari-ning aniqligini doimo ta'kidlab turishi orqali to'garak a'zolarida badiiy did rivojlanadi. Sifatli va sifatsiz tayyorlangan buyumni taqqoslab, chiroyli va xunukni ajratish, ranglarning bir-biriga mosligi o'rgatib borilsa, to'garak a'zolarida badiiy did tarbiyalanib boradi.
7. To'garak jarayonida eng muhim bo'lgan kasbiy tarbiyani shakllanishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Buning uchun har mashg'ulotda to'garak a'zosi bajarayotgan ishi ommaviy kasb egaiari bajaradigan ish ekaniigini eslatib turiladi, korxonalariga borib ishchi kasblari bilan yaqindan tanishtiriladi.
8. Iqtisodga rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yashaydilar, «Toma-toma ko'l bo'lur» maqolining maz-munini o'quvchilarga tushuntiriladi. To'garak mashg'ulotlari jarayonida to'garak a'zolari bilan biror buyumni tayyorlash vaqtida shablon va andazalarni to'g'ri joylashtirishni, materialni tejab ishtatishni talab qilish, qolgan qoldiqlardan biron kichik buyumlarni tayyorlashni o'rgatish orqali iqtisodiy tar-biya shakllanib boradi.

Kasb-hunar o'rgatish to'garaklarini tashkil etish jarayonini rejalashtirish ta'lim jarayonini aniq tashkil etishga asoslanadi. To'garaklarni tashkil etishni rejalashtirish har bir to'garak rahbarining ta'lim rejasi va dasturini bajarishni, o'quv materiallarini mazmuniga to'liq javob beradigan topshiriqlarni bajarishni, to'garak a'zolarini ilmiy-texnik bilimlarini, professional ko'nikma va malakalarini yuqori darajada bolishini taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fozilov, G. G., Koptileuov, B., Umirov, A. T., Kurbanov, A. J., Kurbonov, F. K., Mannobova, S., & Gapparov, S. (2023, December). Development of the constructive scheme and 3D model of the smart corn-seed grader machine. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1284, No. 1, p. 012034). IOP Publishing.
2. Shomirzaev, M. K., & Umirov, A. T. (2022, December). Research on cutting height in soybean harvesting with a combine harvester. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1112, No. 1, p. 012010). IOP Publishing.

3. Panjiyevich, Xurramov Ilxom. "Problems of improving the effectiveness of organizational management activities of leaders of the professional education system." *Eurasian Scientific Herald* 12 (2022): 122-126.
4. Xuramov, I. P. (2022, September). TA'LIM MUASASSALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 2, pp. 217-219).
5. Eshmurzaevich Q. B. O'QUVCHILARNING «TEXNOLOGIYA» FANIDA HUNARMANDCHILIKKA OID MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITDA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI //Наука и технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2.